**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

**Samarqand iqtisodiyot va servis instituti**

**“Bank-moliya xizmatlari” fakulteti**

**“Bank va jamg‘arma ishi” kafedrasi**

**“Himoyaga tavsiya etildi”**

**kafedra mudiri**

**Z.D. Niyozov**

_____

# KURS ISHI

## Mavzu: Pul aylanishi, uning tuzilishi va pul aylanishini rivojlantirish

**Bajardi**: *BI-111 guruh talabasi*

*Muminova S.*

**Ilmiy rahbar:** *ass.Tog`ayev S.S*

## Samarqand 2013 yil

Himoya sanasi «____»_____2013 yil

Bahosi _____

1._____

2._____

3._____

# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

## Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

## “Bank-moliya xizmatlari” fakulteti

## “Bank va jamg‘arma ishi” kafedrasi

**«T a s d i q l a y m a n»**

**kafedra mudiri**

**Z.D. Niyozov**

**_____**

**«____»_____**

Kurs ishi bo‘yicha «Bank-moliya xizmatlari» fakultetining «Bank ishi» ta’lim yo‘nalishi

2-bosqich BI-111 guruh talabasi Muminova S.

**Topshiriq**

**1.** Kurs ishining mavzusi: **Pul aylanishi, uning tuzilishi va pul aylanishini rivojlantirish**

**2.** Kurs ishi bo‘yicha birlamchi ma’lumotlar olish manba’lari:_____
_____

**3.** Kurs ishi rejasi va bajarish muddatlari:

| T/R | Kurs ishining rejalari | Bajarilish muddatlari |
|---|---|---|
| **I** | **1. Pul aylanishi va uning mohiyati.** | |
| **II** | **2. Pul aylanishining tarkibiy qismlari** | |
| **III** | **3. O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarida pul aylanishining tartibi** | |

Topshiriq berilgan sana_____

Kurs ishini topshirish muddati_____

Kurs ishini rahbari_____

Topshiriqni oldim_____

***Eslatma: 1.*** *Topshiriq ikki nusxada tuziladi, bir nusxasi talabaga beriladi, ikkinchi nusxasi kafed-rada saqlanadi*

***2.*** *Ushbu topshiriq kurs ishiga ilova qilinadi*

**Mavzu: Pul aylanishi, uning tuzilishi va pul aylanishini rivojlantirish**

**REJA:**

**Kirish**

**Asosiy qism**

**1. Pul aylanishi va uning mohiyati.**

**2. Pul aylanishining tarkibiy qismlari**

**3. O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarida pul aylanishining tartibi**

**Xulosa**

**Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati**

## Kirish

Mustaqillik yillarda O’zbekiston oldingidan tubdan farq qiluvchi yangi iqtisodiy munosabatlarga asoslangan iqtisodiy rivojlanishning navbatdagi bosqichlariga o’tib bormoqda. Bozor iqtisodi asosida tovar-pul munosabatlari yotadi. Tovar-pul munosabatlari – tovar ishlab chiqarish, tovarlarning ayirboshlash va pul muomalasiga xos munosabatlarni ifoda qiladi. Bozor iqtisodi erkin tovar-pul munosabatlarga asoslangan iqtisodiy monopoliyani inkor qiluvchi, ijtimoiy taraqqiyotga, aholini ijtimoiy muhofaza qilish yo’nalishiga ega bo’lgan va boshqarilib boriladigan iqtisoddir.

Pul aylanishining sodda chizmasida faqat aholi va korxona, tashkilotlar o‘rtasidagi pul harakati tasvirlanadi Bunda pul aylanishining asosiy ikki omili: bir tomondan – tovar va resurslar harakati bilan; - ikkinchi tomondan – pul harakati ko‘rsatilgan. Bunda davlat tashkilotlari, moliyaviy bozor, pul bozorlari, eksport va import va boshqa iqtisodiy munosabatlar aks etmagan.

Pul aylanishining birinchi turiga, ishlab chiqarish jarayoni uchun zarur jami resurslar – mehnat qurollari, mehnat vositalari, ish kuchi sotib olish va aksincha, aholi tomonidan davlat, kooperativ – savdo tashkilotlaridan, kolxoz bozorlaridan, fuqarolardan iste’mol uchun zarur tovarlarni sotib olish va aholining yuqoridagi sub’ektlarga tovarlar sotish, kapital qurilish va ta’minlash sohasidagi hisob – kitoblar va boshqalar kiradi.

Korxona tashkilotlarining vaqtincha bo‘sh turgan pullari ularning roziligiga asosan bank tomonidan kredit resurslari sifatida ishlatilishi mumkin. Korxona, tashkilotlarining bo‘sh pul mablag‘laridan tashkari, banklar jamoat tashkilotlarining, byudjet, sug‘urta tashkilotlarining, aholining banklardagi pul mablag‘laridan o‘z resurslari sifatida foydalanib, xalq xo‘jaligi tarmoqlariga kreditlar berishi mumkin. Shunday qilib, banklar tomonidan pul mablag‘larining yig‘ilish jarayoni pul aylanishida namoyon buladi.


## 1. Pul aylanishi va uning mohiyati

Naqd pulsiz va naqd pul o‘tqazish yo‘li bilan amalga oshiriladigan to‘lovlarning yig‘indisi pul aylanishni tashkil qiladi.

Xalq xo‘jaligi tarmoqlarida yaratilgan tovarlarning barchasi pul yordamida ayirbosh qilinadi. Pul aylanishiga tovar aylanishning pul shaklidagi ko‘rinishi deb qarab bo‘lmaydi. Chunki pul aylanishi tovar aylanishidan kengroq bo‘lib, u tovarning sotilishi va sotib olinishidan tashqari, har xil sohalarda mehnatga haq to‘lash jarayonini ham o‘z ichiga oladi.

Pul aylanishining sodda chizmasida faqat aholi va korxona, tashkilotlar o‘rtasidagi pul harakati tasvirlanadi (1 – chizma). Bunda pul aylanishining asosiy ikki omili: bir tomondan – tovar va resurslar harakati bilan; - ikkinchi tomondan – pul harakati ko‘rsatilgan. Bunda davlat tashkilotlari, moliyaviy bozor, pul bozorlari, eksport va import va boshqa iqtisodiy munosabatlar aks etmagan. Aholi va korxonalar hech kanday vositalarsiz, to‘g‘ridan – to‘g‘ri iqtisodiy munosabatda bo‘ladilar. **1 – chizma**

**Iqtisodiy tizimda tovar pul aylanishining sodda ko‘rinishi**



Ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan resurslari va tovarlar harakati soat millari harakati buyichadir. Bu ko‘rinishda rusurslarning barchasi faqatgina axolining o‘ziga tegishli deb qaralgan va bu resurslar korxonalarning tovar va boshqa mahsulotlariga ayirbosh qilinadi. Bu jarayonning amalga oshishida pul kabi vositachi ishtirok qilmaydi. Ayirboshlash jarayoni pulsiz muvozanat tariqasida namoyon buladi. Ayirboshlashning oddiy shakli, mazmun jihatidan sodda bo‘lsa – da, amalga oshirish jarayonida ma’lum qiyinchiliklar mavjud.

Shuning uchun tomonlar o‘rtisidagi oldi – sotdi jarayonini tezroq va samaraliroq amalga oshiruvchi vositachi zarur. Bu jarayonning kechishi, ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan moddiy va mehnat resurslari shu resurslar uchun to‘lovlar – ish haqi, renta to‘lovlari, foiz daromadlari bilan bog‘langan holda tovar va pul massasini tenglashtiruvchi mustaqil aylanishni yuzaga keltiradi.

Tovar bozori va resurslar bozorining yuzaga kelishi, mahsulot va **milliy daromadning** yuzaga kelishiga olib keladi. **Milliy daromadning** bir qismi aholi tomonidan jamg‘arilib moliyaviy bozorlar orqali investitsiya shaklida korxona, tashkilotlar ixtiyoriga kelib tushadi, bir qismi esa davlat zayomlari orqali byudjet defitsitini qoplashga yo‘naltiriladi. Natijada pul oqimi o‘zining asosiy yo‘nalishlari orqali korxona, tashkilot, aholi, tovarlar bozori va resurslar bozoridan o‘tib moliya bozori va davlatgacha yetib keladi, ya’ni, aholiga kelib tushadigan daromadning bir qismi soliqlar sifatida davlat ixtiyoriga kelib tushadi. Shuning uchun ham **pul aylanishining salmoqli qismini milliy daromadni yaratish,** taqsimlash va qayta taqsimlash bilan bog‘liq bo‘lgan jarayonlar tashkil qiladi. Milliy daromadni yaratishda pul aylanishi jamiyat a’zolari bilan korxonalar o‘rtisidagi to‘lovda namoyon bo‘ladi.

Pul aylanishing quyidagi guruhlarini ifodalash mumkin:

- ishlab chiqarish jarayoni bilan bog‘liq bo‘lgan to‘lovlar (ishlab chiqarish vositalarini sotib olish, ish haqi to‘lash va b.);

- harajatlarni qoplash uchun kelib tushadigan tushumlar va jamg‘armalarni tashkil qilish;

- turli xil moliyaviy majburiyat va daromadlardan to‘lovlarni amalga oshirish va boshqa to‘lovlar. Korxonalar oladigan daromadlardan byudjetga to‘lovlar, ya’ni soliqlar va boshqa to‘lovlarning amalga oshirilishi ham pul aylanishining bir qismini tashkil qiladi.

Pul aylanishi moliyaviy resurslardan foydalanish jarayonini ham o‘z ichiga oladi. Kapital mablag‘lardan foydalanish va ba’zi sohalarda harajatlarni moliyalashtirish, banklar tomonidan kreditlash jarayonining amalga oshirilishi ham pul oborotining yuzaga kelishi uchun zarur shartlardan hisoblanadi. Kreditlash uchun zarur bo‘lgan kredit resurslarni pulning uzluksiz aylanishi natijasida vujudga keladi. Korxona, tashkilotlar tomonidan moddiy boyliklar, materiallar, yoqilg‘i va boshqalarni sotib olish uchun muljallangan pul mablag‘lari oldindan avanslashtiriladi. Qiymat pul shaklidan tovar shakliga utadi. Ishlab chiqarilgan mahsulot sotiladi va mol yetkazib beruvchining hisob varag‘iga pul mablaglari kelib tushadi. Shu tariqa korxonalarning puli uzluksiz aylanib turadi. Tovarlar uchun to‘lovlar naqd pulsiz amalga oshirilgani uchun korxona hisob varag‘iga kelib tushgan pul, uni ishlatishga zarurat tug‘ilgunga qadar banklarda saqlanadi.

Korxona tashkilotlarining vaqtincha bo‘sh turgan pullari ularning roziligiga asosan bank tomonidan kredit resurslari sifatida ishlatilishi mumkin. Korxona, tashkilotlarining bo‘sh pul mablag‘laridan tashkari, banklar jamoat tashkilotlarining, byudjet, sug‘urta tashkilotlarining, aholining banklardagi pul mablag‘laridan o‘z resurslari sifatida foydalanib, xalq xo‘jaligi tarmoqlariga kreditlar berishi mumkin. Shunday qilib, banklar tomonidan pul mablag‘larining yig‘ilish jarayoni pul aylanishida namoyon buladi.

Korxona tashkilotlarning kreditlashda pul mablag‘lari vaqtincha foydalanishga beriladi. Kredit berish va kredit hisobidan tovar moddiy boyliklarni sotib olish, ularni boshqa ishlab chiqarish harajatlari uchun sarflash va keyinchalik

kreditni to‘lash ssuda hisobiga mablag‘ o‘tkazish jarayoni pul aylanishining unsurlaridan biri hisoblanadi.

Pul oboroti investitsiya bilan bog‘lik harajatlarni, sug‘urta jarayonlarini amalga oshirishni, mulkni, hayotni, transport vositalarini, bog‘larni, boshqa buyumlarni sug‘urta qilish va uni to‘lashni o‘z ichiga oladi.

Pul aylanishi aholi tomonidan uy – joy, kommunal xizmatlar, gaz, elektro energiyasi, aloqa xizmatlari uchun to‘lovlar, madaniy – maishiy xizmat ko‘rsatish korxonalariga to‘lovlar, transport uchun va boshqa tulovlarni, a’zolik badallari va paylarni to‘lashni o‘z ichiga oladi. Shunday qilib, pulning ayrim yo‘nalishlarda harakatini ko‘rib chiqqan holda, pul aylanishining mohiyatini quyidagicha ta’riflash mumkin. Pul aylanishi, bu naqd pullik va pul o‘tkazish yo‘li bilan olib boriladigan hisob – kitoblarning yig‘indisidir.

Pul aylanishini ikki asosiy belgiga: birinchidan, jami ijtimoiy mahsulot ishlab chiqarish va ikkinchidan, pulning funksiyalariga ko‘ra tarkibiy qismlarga bo‘lish mumkin. Jami ijtimoiy mahsulotni ishlab chiqarish jarayoni bilan bog‘liq holda pul aylanishi: tovarlarni ishlab chiqarish va sotish, kapital qurilish bilan bog‘liq aylanishga bo‘linadi.

Pul aylanishining birinchi turiga, ishlab chiqarish jarayoni uchun zarur jami resurslar – mehnat qurollari, mehnat vositalari, ish kuchi sotib olish va aksincha, aholi tomonidan davlat, kooperativ – savdo tashkilotlaridan, kolxoz bozorlaridan, fuqarolardan iste’mol uchun zarur tovarlarni sotib olish va aholining yuqoridagi sub’ektlarga tovarlar sotish, kapital qurilish va ta’minlash sohasidagi hisob – kitoblar va boshqalar kiradi.

Pul aylanishining ikkinchi turiga ishchi xizmatchilarga ish haqi to‘lash, milliy daromadni taqsimlash va qayta taqsimlash bilan bog‘liq to‘lovlar, kreditlash jarayoni bilan bog‘lik to‘lovlar va boshqa tovar harakati bilan bog‘lik bo‘lmagan to‘lovlar kiradi.

Pul funksiyalari va to‘lov turiga ko‘ra pul aylanishi naqd pullik va naqd pulsiz aylanishga bo‘linadi.

Pul aylanishining asosiy qismini naqd pulsiz aylanish, ya’ni korxona, tashkilotlar o‘rtasidagi, ularning davlat byudjeti, kredit tashkilotlari bilan naqd pulsiz bir hisob raqamidan ikkinchi hisob raqamiga mablag‘ o‘tkazish yo‘li bilan amalga oshiriladigan aylanish tashkil qiladi.

Pul aylanishi tarkibida naqd pulsiz aylanish salmog‘ining yuqori bo‘lishining sababi, avvalambor korxona, tashkilotlar o‘rtasida iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi, ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqarishni yuksaltirish zarurligi, ba’zi bir tarmoqlarning ixtisoslashuvi, kredit tizimining takomillashuvi va boshqalardir.

Tovarlarni sotish jarayonidagi hisoblar moddiy boyliklar aylanishi bilan bog‘lik bo‘lib, ular asosan korxona, tashkilotlar o‘rtasida olib boriladi.

Notovar tavsifdagi hisob – kitoblarga milliy daromadni taqsimlash, qayta taqsimlash bilan bog‘lik bo‘lgan tovarlar, daromaddan to‘lovlar, har xil badallari soliqlari, kreditlarni to‘lash, uy – joy, har xil xizmatlar uchun to‘lovlar va boshqalar kiradi.

Tovarlar harakati bilan bog‘lik bo‘lgan hisob – kitoblarning naqd pulsiz o‘tkazilishi, moddiy boyliklarni yetkazib berish va ko‘rsatilgan xizmatlar uchun to‘lov muddatini yaqinlashtirishga yordam beradi. Tovar moddiy boyliklar va xizmatlar uchun to‘lovlarning o‘z vaqtida o‘tkazilmasligi korxonalar mablag‘larining xo‘jalik aylanishidan chiqib ketishga, ko‘zlagan rejalarni bajarishga mablag‘larning yetishmasligiga olib keladi. To‘lovning tovarlarni olishdan oldin amalga oshirilishi mol sotib oluvchi korxona mablag‘larining xo‘jalik aylanishidan chiqib ketishiga olib keladi. Shuning uchun tovarlar harakati va to‘lovlar bir – biriga mos kelishi katta ahamiyatga ega.

Naqd pullik aylanish – bu naqd pul yordamida amalga oshiriladigan to‘lovlar yig‘indisidir. Bu aylanish pul o‘zining to‘lov va muomala vositasi funksiyalarini bajarishida yuzaga keladi.

Naqd pullar muomala vositasi sifatida aholi bilan korxona, tashkilotlar o‘rtasida, aholi bilan aholi o‘rtasidagi tovarlar sotib olishda va sotishda qo‘llaniladi.

Pul to‘lov vositasi sifatida ish haqi, nafaqalar, mukofotlar, yakka tartibdagi qurilish uchun beriladigan kreditlar, sug‘urta to‘lovlarni to‘lashda namoyon bo‘ladi.

Undan tashqari naqd pullik aylanishga:

- kommunal xizmatlar uchun to‘lovlar;
- maishiy xizmatlar uchun to‘lovlar;
- sug‘urta tashkilotlariga paylarni to‘lash;
- bank kreditini to‘lash;
- matbuot tashkilotlariga paylarni to‘lash;
- aksionerlik jamiyatlari bilan a’zolari o‘rtasidagi to‘lovlar va boshqa to‘lovlar kiradi.

Korxona, tashkilotlarning bankdagi hisob raqamidagi pul mablag‘lari quyidagi yo‘llar bilan naqd pulga aylanadi:

- ishchi xizmatchilarga ish haqi berish;
- ko‘rsatilgan xizmatlar, mehnat uchun to‘lovlar;
- nafakalar to‘lash;
- har xil mukofotlar;
- aholidan qishloq xo‘jalik mahsulotlari, tovarlar sotib olishda;

- davlat zayomlari va lotoreya biletlari buyicha to‘lovlar;

- aholi banklardan jamg‘armalarini olganda;

- aholiga sug‘urta to‘lovlarini to‘laganda va xokazo.

Naqd pullar cheklangan miqdorda muomalaga chiqariladi.

Naqd pullarni muomalaga chiqarilishi ustidan bank nazorat olib boradi.

Pulning naqd pulsiz aylanishiga o‘tganidan naqd pullik aylanishga ko‘proq o‘tishi pul muomalasi uchun xatarliroq hisoblanadi. Shuning uchun ham pulning naqd pullik aylanishga o‘tish jarayoni davlatning Markaziy banki tomonidan nazorat qilib borilishi kerak.

Pul aylanishi bo‘limlari o‘rtasida yuzaga keladigan nomutanosiblik iqtisodiy choralar ishlab chiqish va amalga oshirish yo‘li bilan yo‘kotilishi kerak.

Buning uchun muomalaga xalq ehtiyoji uchun zarur bo‘lgan tovarlarni ishlab chiqish va sotish, aholiga xizmat ko‘rsatuvchi tashkilot va muassasalar sonini va xizmat turlarini yaxshilash naqd pullarning naqd pulsiz aylanishga o‘tish jarayonini tezlashtiradi. Bu o‘z navbatida mazkur mablag‘lar hisobidan ishlab chiqarish jarayonini kengaytirishga imkon beradi.


Ba’zi adabiyotlarda naqd pul aylanishi va pul muomalasi tushunchalari bir xil mohiyatga ega degan xato fikrlarni ham uchratish mumkin. Pul muomalasining uziga xos xususiyati shundaki, bir pul belgisi bir necha marta to‘lovlarni amalga oshirishda ishlatilishi mumkin. Muomalada bo‘lgan naqd pul massasi ma’lum bir davrda (oy, uch oy, yil) da o‘zgarmas bo‘lib turgan holda, naqd pul oboroti pul birligining aylanish tezligiga ko‘ra muomaladagi naqd pul miqdoridan bir necha marta ko‘p bo‘lishi mumkin va aksincha.

## 2. Pul aylanishining tarkibiy qismlari . (Naqd pul va naqd pulsiz hisob-kitob shakllaridan foydalanish tartibi)

Naqd pul aylanishi pulning muomala vositasi vazifasidan kelib chiqadi.


**Naqd pul aylanishi deganda,** ma'lum davrda naqd pullar vositasida amalga oshirilgan barcha to‘lovlar yig‘indisi tushuniladi. Bu to‘lovlar banknot yoki tangalar orqali amalga oshiriladi.

Naqd pullar harakati bankdan boshlanadi, ular bankdan chiqib korxona va tashkilotlarning kassalariga kelib tushadi. Korxona va tashkilotlar esa bu pullarni ish xaqi, stipendiya, nafaqa va boshqa to‘lovlar sifatida kishilarga to‘laydilar. Kishilar o‘z navbatida bu pullarga tovarlar sotib oladilar, o‘zlariga ko‘rsatilgan xizmatlar haqini to‘laydilar. Bu pullar yana savdo va xizmat ko‘rsatuvchi korxonalar kassalariga kelib tushadi. Ular esa naqd pul tushumlarini o‘zlariga xizmat ko‘rsatuvchi bankka topshiradilar. Naqd pullar harakati ana shu tarzda yakunlanadi va yangidan boshlanadi. Bu hol to‘xtovsiz takrorlanaveradi, ya'ni:





Naqd pul aylanishi quyidagi hollarda ro‘y beradi:


- Korxonalar, tashkilotlar, muassasalar bilan aholi o‘rtasida ish haqi, mukofotlar va boshqa to‘lovlarni to‘lash, tovarlar sotib olish, hamda ko‘rsatilgan xizmatlar uchun haq to‘lash jarayonida:




- Davlat muassasalari bilan aholi o‘rtasida pensiya, nafaqa, stipendiya, yutuqlar, soliqlar va boshqalarni to‘lash jarayonida:




- Bank tizimi bilan aholi o‘rtasida qarz olish va uni qaytarish, qarz foizini to‘lash, omonatlar qo‘yish va olish jarayonida:





- Aholining turli qatlamlari o‘rtasida bozorda turli mahsulotlar sotib olish, ko‘rsatilgan xizmatlarga haq to‘lash jarayonida:




Naqd pul aylanishi pul aylanishi ishtirokchilaridan biri albatta, aholi vakili bo‘lishini taqozo etadi.

Naqd pullar cheklangan miqdorda muomalaga chiqariladi va buning ustidan banklar nazorat olib boradilar. Bankka topshirilgan naqd pul osonlikcha pul topshiruvchining hisob–raqamidagi yozuvga aylanadi. Hisob raqamidagi yozuvlar esa o‘z navbatida naqd pulga aylanishi mumkin. Mamlakat Markaziy banki muomaladagi naqd pul massasini quyidagicha aniqlaydi va boshqarib boradi:




Muomaladagi naqd pul massasining asosiy qismini aholi qo‘lidagi pul tashkil etadi. Ularni hisoblash va tartibga solish nihoyatda qiyin jarayondir. Ana

shu sababli aholi qo‘lida haddan tashqari ko‘p miqdorda naqd pul to‘planib qolishi salbiy oqibatlarga olib keladi.

Aholi qo‘lidagi naqd pullarni quyidagicha tartibga solish mumkin:

- aholi ehtiyojlarini to‘liq qondirish uchun sifatli tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatish;
- tovarlar va xizmatlarga xaq to‘lashda cheklar, kredit va plastik kartochkalar hamda boshqalarni joriy etish;
- aholi mablag‘larini turli - tuman omonatlar va jamg‘armalar sifatida banklarga jalb qilish;
- aholiga qiymatli qog‘ozlarni sotish, ularning mablag‘larini iqtisodiyotni rivojlantirishga sarflash va boshqalar.

Mustaqillik yillarida pul muomalasini tartibga solish mexanizmlari takomilashtirildi, savdo va xizmat ko‘rsatish faoliyatidan tushadigan naqd pul tushumini to‘liq inkassatsiya qilish hamda korxonalar va aholining naqd pulga bo‘lgan talabini ularning birinchi murojatiga ko‘ra ta’minlash borasidagi qonunchilik talablari kuchaytirildi. Ushbu jarayonlarni monitoring qilish agar muammo yuzaga kelganda uni tezkor hal qilishning samarali tizimi shakillantirildi.

Xususan, pul muomalasini boshqarishning bozor iqtisodiyotiga xos bo‘lmagan usullari va mexanizmlari bekor qilindi.

Amalga oshirilgan tadbirlar natijasida inflyatsiya darajasining keskin pasayishiga erishildi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining “Naqd pulsiz hisob-kitoblar to‘g‘risida”gi Nizomi mamlakatimiz bank va xo‘jalik amaliyotida naqd pulsiz hisob-kitob shakllaridan foydalanish tartibini belgilab beradi. Mazkur Nizom “O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki to‘g‘risida”gi, “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi qonunlar hamda O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksiga muvofiq ravishda ishlab chiqilgan.

Nizomda naqd pulsiz hisob-kitoblarning quyidagi mustaqil shakllaridan foydalanishga ruxsat etilgan:

– to‘lov talabnomalari;

– to‘lov topshiriqnomalari;

– cheklar;

– hujjatlashtirilgan akkreditivlar;


– inkasso.

To‘lov talabnomalari orqali yetkazib berilgan tovarlar va ko‘rsatilgan xizmatlar uchun to‘lovlar undiriladi. Bunda to‘lovni amalga oshirishga asos bo‘lib, mol yetkazib beruvchi va to‘lovchi o‘rtasidagi qarzdorlikni tasdiqlovchi solishtirish dalolatnomasining mavjudligi hisoblanadi.

Naqd pulsiz hisob-kitoblarning to‘lov talabnomasi shaklidan keng ko‘lamda foydalanish xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar o‘rtasidagi debitor-kreditor qarzdorlik miqdorini oshishiga xizmat qiladi. Chunki ushbu shakl vositasida to‘lovi amalga oshirilmasdan olingan tovarlar va ko‘rsatilgan xizmatlar bo‘yicha hisob-kitoblar amalga oshiriladi.

Xalqaro amaliyotda haqi to‘lanmasdan olingan tovarlar kreditga sotilgan hisoblanadi va ular tijorat veksellari bilan rasmiylashtiriladi. Respublikamiz amaliyotida veksellar muomalasi mavjud emas. Buning ustiga, haqi to‘lanmasdan olingan tovarlar kreditga sotilgan deb hisoblanmaydi.

To‘lov topshiriqnomasi - bu sotib oluvchining yetkazib berilgan tovarlar va ko‘rsatilgan xizmatlar yuzasidan to‘lovlarni amalga oshirish to‘g‘risida o‘z bankiga bergan yozma topshirig‘idir.



**1-rasm. To‘lov topshiriqnomasi orqali hisob-kitoblarni amalga oshirish tartibi**

Bu yerda:

(1) – oldi-sotdi shartnomasini imzolash;

(2) – mol yetkazib beruvchi oldi-sotdi shartnomasiga muvofiq tovarlarni hamda tovarlar bilan bog‘liq hujjatlarni jo‘natadi;

(3) – sotib oluvchi to‘lovni amalga oshirish maqsadida o‘z bankiga to‘lov topshiriqnomasi yozadi;

(4) – sotib oluvchining banki sotib oluvchining to‘lov topshiriqnomasiga asosan to‘lovni amalga oshiradi;

(5) – to‘lovni amalga oshirilganligi to‘g‘risidagi xabar mol yetkazib beruvchining bankiga yetkaziladi;

(6) – mol yetkazib beruvchining banki to‘lov summasini mol yetkazib beruvchining joriy schyotiga o‘tkazadi;

(7) – mol yetkazib beruvchining joriy schyotidan ko‘chirma.

2.1-rasm ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, to‘lov topshiriqnomalari orqali hisoblashishlar sotib oluvchiga yetkazib beriladigan tovarlarning sifatini nazorat qilish imkonini beradi, chunki sotib oluvchi tovarlarning sifatini tekshirgandan keyingina to‘lov topshiriqnomasi yozadi. Shu jihatdan olganda, to‘lov topshiriqnomasi sotib oluvchi uchun qulay bo‘lgan naqd pulsiz hisob-kitob shakli hisoblanadi.

Ayni vaqtda, naqd pulsiz hisob-kitoblarning to‘lov topshiriqnomasi shakliga xos bo‘lgan ayrim kamchiliklarning mavjudligini e’tirof etish joiz. Fikrimizcha, ulardan asosiylari quyidagilardir:


– yetkazib berilgan tovarlar va ko‘rsatilgan xizmatlar bo‘yicha to‘lov kafolatlanmagan;

– yetkazib berilgan tovarlar va ko‘rsatilgan xizmatlar uchun to‘lov summasining asosiy qismi (50 foizdan ortiq qismi) oldindan to‘langanda sifatsiz tovarlar yetkazib berish, tovarlarni o‘z vaqtida yetkazib bermaslik, xizmatlarni

sifatli tarzda ko‘rsatmaslik yoki tovarlarni umuman yetkazib bermaslik (xizmatlarni ko‘rsatmaslik) xavfi saqlanib qoladi.

To‘lov topshiriqnomalarida to‘lovning kafolatlanmaganligi xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar o‘rtasidagi debitor-kreditor qarzdorlik hajmini qisqartirish nuqtai-nazaridan salbiy holat hisoblanadi. Chunki ko‘pchilik o‘tish iqtisodiyoti mamlakatlarida xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning pul oqimi barqarorligini ta’minlash muammosi mavjud. Bunday sharoitda yetkazib berilgan tovarlar va ko‘rsatilgan xizmatlar uchun to‘lovning kafolatlanganligini ta’minlash, uni o‘z vaqtida amalga oshirilishiga erishish to‘lovsizlik muammosini hal qilish jihatidan muhim amaiy ahamiyat kasb etadi.

Quyidagi rasm ma’lumotlari orqali respublikamiz bank amaliyotida hujjatlashtirilgan akkreditivlarning asosiy shakli sifatida keng qo‘llanilayotgan ta’minlangan akkreditivlar vositaisda naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirish tartibini ko‘rib chiqamiz.






**2-rasm. Ta’minlangan hujjatlashtirilgan akkreditivlar orkali hisob-kitoblarni amalga oshirish tartibi**

Bu yerda:

(1) – oldi-sotdi shartnomasini imzolash;

(2) – sotib oluvchi akkreditiv ochish to‘g‘risida o‘z bankiga ariza beradi;

(3) – sotib oluvchining banki sotib oluvchining joriy schyotidan to‘lov summasini olib, uni alohida schyotda (22602-schyotda) deponentlaydi;

(4) – sotib oluvchining banki mol yetkazib beruvchining bankini akkreditiv ochilganligi to‘g‘risida yozma ravishda xabardor qiladi;

(5) – mol yetkazib beruvchining banki mol yetkazib beruvchiga hujjatlashtirilgan akkreditiv ochilganligi to‘g‘risidagi xabarni yetkazadi;

(6) – mol yetkazib beruvchi tovarlarni jo‘natadi;

(7) – mol yetkazib beruvchi tovarlar bilan bog‘liq bo‘lgan hujjatlarni o‘zining bankiga uzatadi;

(8) – mol yetkazib beruvchining banki tovarlar bilan bog‘liq bo‘lgan hujjatlarni tekshiradi va qabul qilib oladi (agar hujjatlarda xatoliklar mavjud bo‘lsa, u holda hujjatlar to‘g‘rilash uchun mol yetkazib beruvchiga qaytariladi);

(9) – mol yetkazib beruvchining banki tovarlar bilan bog‘liq bo‘lgan hujjatlarni sotib oluvchining bankiga jo‘natadi;

(10) – sotib oluvchining banki deponent schyotidagi mablag‘lar hisobidan to‘lovni amalga oshiradi;

(11) – sotib oluvchining banki tovarlar bilan bog‘liq bo‘lgan hujjatlarni sotib oluvchiga beradi;

(12) – mol yetkazib beruvchining bankiga to‘lovni amalga oshirilganligi to‘g‘risidagi xabar yetkaziladi;

(13) – mol yetkazib beruvchining banki to‘lov summasini mol yetkazib beruvchining joriy schyotiga o‘tkazadi;

(14) – mol yetkazib beruvchining joriy schyotidan ko‘chirma.

2.2-rasmdan ko‘rinadiki, ta’minlangan hujjatlashtirilgan akkreditivlarda yetkazib berilgan tovarlar yoki ko‘rsatilgan xizmatlar bo‘yicha to‘lovlar to‘liq kafolatlangan. Bu esa, o‘z navbatida, to‘lovsizlik muammosini hal qilish, xo‘jaik yurituvchi sub’ektlar o‘rtasidagi debitor-kreditor qarzdorlik hajmini qisqartirish nuqtai-nazaridan ijobiy holat hisoblanadi.


Ayni vaqtda, ta’minlangan hujjatlashtirilgan akkreditivlarga xos bo‘lgan qator kamchiliklar mavjud deb hisoblaymiz. Fikrimizcha, ulardan asosiylari sifatida quyidagilarni ajratib ko‘rsatish mumkin:


1. Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar pul mablag‘larining ma’lum qismi ularning xo‘jalik aylanmasidan chiqib qoladi. Deponentlangan pul mablag‘laridan sotib oluvchi o‘zining xo‘jalik faoliyatida foydalana olmaydi, tijorat banki esa deponentlangan mablag‘ga foiz hisoblamaydi.

2. Ta’minlangan hujjatlashtirilgan akkreditivlarda to‘lovni amalga oshirish davri cho‘zilib ketadi, hujjatlar nisbatan uzoq aylanadi. Natijada tovarlarni sotish jarayoni ham cho‘zilib ketadi.

3. Ta’minlangan hujjatlashtirilgan akkreditivlarda deponent qilingan pul mablag‘larining real qiymatini pasayish xavfi saqlanib qoladi. Mazkur xavf inflyatsiya va vayutalarning almashuv kurslarini o‘zgarishi bilan bog‘liq. Inflyatsiyaning kuchayishi natijasida milliy valyutada deponent qilingan mablag‘larning real qiymati pasayadi, valyuta riski ta’sirida esa, milliy va xorijiy valyutalarda deponent qilingan mablag‘larning real qiymati pasayishi mumkin.

Quyidagi rasm ma’lumotlari orqali hujjatli inkasso vositasidagi naqd pulsiz hisob-kitoblarni amaga oshirish tartibini ko‘ramiz.






**3-rasm. Hujjatli inkasso orqali hisob-kitoblarni amalga oshirishi tartibi**

Bu yerda:

(1) – oldi-sotdi shartnomasini imzolash;

(2) – mol yetkazibberuvchi tovarlarni jo‘natadi;

(3) – mol yetkazib beruvchi tovarlar bilan bog‘liq bo‘lgan hujjatlarni o‘zining bankiga uzatadi;

(4) – mol yetkazib beruvchining banki tovarlar bilan bog‘liq bo‘lgan hujjatlarni tekshiradi va qabul qilib oladi (agar hujjatlarda xatoliklar mavjud bo‘lsa, u holda hujjatlar to‘g‘rilash uchun mol yetkazib beruvchiga qaytariladi);

(5) – mol yetkazib beruvchining banki tovarlar bilan bog‘liq bo‘lgan hujjatlarni sotib oluvchining bankiga inkasso uchun jo‘natadi;

(6) – sotib oluvchining banki tovarlar bilan bog‘liq bo‘lgan hujjatlarni inkassoga qabul qiladi;

(7) – sotib oluvchining banki tovarlar bilan bog‘liq bo‘lgan hujjatlarni kelib tushganligi to‘g‘risida sotib oluvchini xabardor qiladi;

(8) – sotib oluvchi to‘lov topshiriqnomasi yozadi;

(9) – sotib oluvchining banki to‘lov topshiriqnomasiga asosan to‘lovni amalga oshiradi;

(10) – sotib oluvchining banki tovarlar bilan bog‘liq bo‘lgan hujjatlarni sotib oluvchiga beradi;

(11) – mol yetkazib beruvchining bankiga to‘lovni amalga oshirilganligi to‘g‘risidagi xabar yetkaziladi;

(12) – mol yetkazib beruvchining banki to‘lov summasini mol yetkazib beruvchining joriy schyotiga o‘tkazadi;

(13) – mol yetkazib beruvchining joriy schyotidan ko‘chirma.

3-rasmdan ko‘rinadiki, hujjatli inkassoda sotib oluvchini to‘lovni o‘z vaqtida amalga oshirishga undovchi o‘ziga xos bosim o‘tkazish imkoniyati mavjud. Ya’ni, sotib oluvchining banki to‘lov amalga oshirilmasdan turib, tovarlar bilan bog‘liq bo‘lgan hujjatlarni sotib oluvchiga bermaydi. Sotib oluvchi esa, hujjatlarni olmasa tovarni ola olmaydi. Tovarni o‘z vaqtida olmaslik, birinchidan, sotib oluvchining ishlab chiqarish va moliyaviy faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi; ikkinchidan, ortiqcha harajat qilishiga sabab bo‘ladi. Chunki tovarni omborxonalarda yoki tovar stansiyalarida turib qolganligi uchun sezilarli miqdorda penya to‘lashga to‘g‘ri keladi.

Fikrimizcha, hujjatli inkasso vositasida amalga oshiriladigan naqd pulsiz hisob-kitoblarga xos bo‘lgan asosiy kamchilik – bu to‘lovning kafolatlanmaganligidir. Shu sababli, bir-birini yaxshi bilgan va doimiy aloqada bo‘lgan hamkor korxonalar o‘rtasida hujjatli inkassodan foydalanishni maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

Respublikamiz xo‘jalik amaliyotida tijorat veksellari muomalasi mavjud emas. Bu esa, naqd pulsiz hisob-kitoblarning sof inkasso shaklidan foydalanish imkonini bermaydi. O‘z navbatida, sof inkassoning mavjud emasligi naqd pusiz hisob-kitob shakllaridan foydalanish amaliyotini takomillashtirishga sabiy ta’sir ko‘rsatadi.

Tijorat veksellarini indossament orqali boshqa shaxslarga uzatishning mumkinligi ularning korxonalar o‘rtasidagi debitor-kreditor qarzdorlikni kamaytirishdagi ahamiyatini oshiradi. Shu sababli, sof inkasso ham debitor-kreditor qarzdorlikni kamaytirishda o‘ziga xos o‘rin tutadi[1]

Garchi naqd pulsiz hisob-kitoblarni tashkil qilish to‘g‘risidagi me’yoriy-huquqiy hujjatlarda, avvalo Nizomda hisob-kitob cheklaridan foydalanishga ruxsat

1.Xalqaro bank amaliyotida vekselni uchinchi shaxsga uzatish huquqini beruvchi maxsus yozuv **indossament** deb ataladi. Respublikamiz amaliyotida “indossament” so‘zi o‘rniga ko‘pchilik hollarda “alonj” so‘zi ishlatiladi. Vekselni uchinchi shaxsga uzatgan sub’ekt indossant deb, vekselni indossantdan qabul qilib olgan shaxs esa indossat deb ataladi.

etilgan bo‘lsada, mamlakatimiz xo‘jaik amaliyotida yuridik shaxslar o‘rtasidagi hisob-kitoblarda qo‘laniladigan hisob-kitob cheklari mavjud emas.

1996 yilga qadar yuridik shaxslar o‘rtasidagi hisob-kitoblarda qo‘laniladigan hisob-kitob cheklari mavjud edi. Ushbu cheklar limitlashtirilgan chek daftarchalari ko‘rinishida bo‘lib, bunda cheklar summasi alohida schyotda deponent qilinar edi. Chek mol yetkazib beruvchining bankiga taqdim etilishi bilan to‘lanar edi. To‘lov amalga oshirilgandan keyin mol yetkazib beruvchining banki chekni debetli avizo bilan sotib oluvchining bankiga jo‘natar edi. Sotib oluvchining banki chek summasini deponent qilingan mablag‘lar hisobidan to‘lab berardi. Ammo 1996 yilga kelib deponentlangan mablag‘lar miqdoridan sezilarli darajada katta bo‘lgan summaga yozilgan hisob-kitob cheklari muomalada paydo bo‘ldi. Fikrimizcha, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan hisob-kitob cheklari muomalasining vaqtinchalik to‘xtatilishi ana shu sabab bilan izohlanadi.

Shuni tan olish kerakki, limitlashtirilgan chek daftarchalariga asoslangan naqd pulsiz hisob-kitoblarga xos bo‘lgan asosiy kamchilik shundan iborat ediki, unda sotib oluvchiga tegishli mablag‘larini uning xo‘jalik aylanmasidan chiqib qolishi yuz beradi. Buning sababi shundaki, deponentlangan pul mablag‘idan sotib oluvchi korxona foydalana olmaydi, tijorat banki esa, deponentlangan mablag‘ga foiz to‘lamaydi. Ammo mazkur hisob-kitob cheklarida to‘lov kafolatlangan edi. Bu esa, hisob-kitob cheklarining xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar o‘rtasidagi debitor-kreditor qarzdorlik hajmini qisqartirishdagi ahamiyatini oshiradi.

1-paragraf bo‘yicha xulosalar:

– respublikamiz amaliyotida naqd pulsiz hisob-kitob shakllarining sof inkasso, hisob-kitob cheklari, banklarning orderli cheklari kabi mustaqil shaklari mavjud emas;

– respublikamiz amaliyotida qo‘llanilayotgan to‘lov topshiriqnomalari vositasidagi hisob-kitoblar qator kamchiliklarga ega;

– ta’minlangan hujjatlashtiirlgan akkreditivlarda sotib oluvchilarga tegishil pul mablag‘larining xo‘jalik aylanmasidan chiqib qolishi yuz bermoqda.

Naqd pulsiz hisob-kitob shakllaridan foydalanish amaliyotini tahlil qilish va baholashni har bir naqd pulsiz hisob-kitob shaklining umumiy to‘lov aylanmasidagi ulushini aniqlashdan boshlaymiz. Buning sababi shundaki, har bir shakl o‘ziga xos afzallik va kamchiliklarga ega bo‘lib, ulardan foydalanish ko‘lamining o‘zgarishi xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning moliyaviy-xo‘jalik faoliyatiga faol ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, to‘lov talabnomasi vositasidagi hisob-kitoblar hajmining oshishi mol yetkazib beruvchi xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning faoliyatiga, pul oqimiga nisbatan salbiy ta’sirning mavjud ekanligidan dalolat beradi. Chunki to‘lov talabnomalari mahsulot yetkazib berilgandan keyin uning summasini undirish maqsadida qo‘yiladi. Mahsulot summasining o‘z vaqtida undirilmasligi xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning debitor qarzdorligining oshishiga olib keladi va shuning asosida ularning moliyaviy holatiga nisbatan salbiy ta’sirni yuzaga keltiradi.

Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar o‘rtasida debitor-kreditor qarzdorlik muammosi mavjud bo‘lgan sharoitda hujjatlashtirilgan akkreditivlar vositasidagi naqd pulsi hisob-kitoblar hajmining oshishi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki akkreditivlarda yetkazib berilgan mahsulotlar va ko‘rsatilgan xizmatlar yuzasidan to‘lov kafolatlangan bo‘ladi.

Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar o‘rtasidagi debitor-kreditor qarzdorlikni qisqartirish muammosi mavjud bo‘lgan sharoitda to‘lovlarni kafolatlash imkonini beradigan naqd pulsiz hisob-kitob shakllaridan foydalanishga ustuvor darajada ahamiyat berish muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Quyidagi jadval ma’lumotlari orqali naqd pulsiz hisob-kitob shakllarining umumiy to‘lov aylanmasidagi ulushining holati va dinamikasini ko‘rib chiqamiz.

1-jadval

**Naqd pulsiz hisob kitob shakllarining umumiy naqd pulsiz to‘lov aylanmasidagi ulushi dinamikasi[2]**

(foizda)

| Naqd pulsiz hisob-kitob shakllari | 2004 | 2005 | 2006 | 2007 | 2008 | 2008 yilda 2004 yilga nisbatan o‘zgarishi, f.p. |
|---|---|---|---|---|---|---|
| To‘lov topshiriqnomasi | 57,02 | 55,06 | 50,71 | 51,81 | 52,18 | - 4,84 |
| Inkasso | 1,13 | 0,95 | 0,93 | 0,82 | 0,61 | - 0,52 |
| To‘lov talabnomasi | 0,82 | 0,70 | 0,74 | 0,39 | 0,37 | - 0,45 |
| Hujjatlashtirilgan akkreditiv | 0,10 | 0,02 | 0,04 | 0,03 | 0,02 | - 0,08 |

1-jadvalda keltirilgan ma’lumotlardan ko‘rinadiki, 2008 yilda to‘lov topshiriqnomasi vositasida amalga oshirilgan naqd pulsiz hisob-kitoblarning umumiy to‘lov aylanmasidagi salmog‘i sezilarli darajada pasaygan. Ushbu pasayish boshqa naqd pulsiz hisob-kitoblarning umumiy to‘lov aylanmasidagi ulushlarining oshishi hisobiga yuz berganda edi, u holda mazkur pasayishni ijobiy holat sifatida baholasak bo‘lar edi. Ammo amalda to‘lov topshiriqnomalari ulushining pasayishi memorial order vositasida o‘tkazilgan to‘lovlar miqdorining va umumiy to‘lov aylanmasidagi ulushining oshganligi bilan izohlanadi. Memorial order orqali amalga oshirilgan naqd pulsiz hisob-kitoblarning umumiy to‘lov aylanmasidagi ulushi 2008 yilda 45,41 foizni tashkil qildi. Bu esa, 2004 yilga nisbatan 5,23 foizli punktga yuqori demakdir.

2.O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining statistik ma’lumotlari asosida hisoblandi.

1-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, 2004-2008 yillarda naqd pulsiz hisob-kitoblarning inkasso, to‘lov talabnomasi, hujjatlashtirilgan akkreditivlar shakllarining umumiy to‘lov aylanmasidagi ulushi juda pastligicha qolgan. Bu esa, naqd pulsiz hisob-kitoblarning mazkur shakllari vositasidagi naqd pulsiz hisob-kitoblar amaliyotini takomillashtirish borasida dolzarb muammolarning mavjud ekanligidan dalolat beradi.

Shuningdek, yuqorida keltirilgan jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, yuridik shaxslar o‘rtasida qo‘llaniladigan hisob-kitob cheklari vositasidagi naqd pulsiz hisob-kitob shakli mavjud emas. Buning sababi shundaki, mazkur naqd pulsiz hisob-kitob shakli vosiatsidagi hisob-kitoblar respublikamiz amaliyotida 1996 yilda vaqtinchalik to‘xtatilgan. Buning asosiy sababi shundaki, deponentlangan chek summalari bilan yozilgan chek summalari o‘rtasida tafovut yuzaga keldi, ya’ni ta’minlanmagan cheklar muomalada paydo bo‘ldi.

1-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, tahlil qilingan davr mobaynida hujjatlashtirilgan akkreditivlar vositasidagi naqd pulsiz hisob-kitoblarning umumiy to‘lov aylanmasidagi ulushining pasayishi va past darajadaligi kuzatildi. Bu esa, xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar o‘rtasidagi debitor-kreditor qarzdorlik miqdorini kamaytirish nuqtai-nazaridan salbiy holat hisoblanadi. Chunki hujjatlashtirilgan akkreditivlarda to‘lov kafolatlangan bo‘ladi. Ularning har bir shaklida yetkazib berilgan tovarlar va ko‘rsatilgan xizmatlar bo‘yicha to‘lov summasi kafolatlangan bo‘ladi. Ta’minlangan akkreditivlarda to‘lov summasi alohida schyotda (respublikamiz banklarida 22602-schyotda) deponent qilinadi. Ta’minlanmagan akkreditivlarda esa to‘lov yuzasidan kafolat tijorat banki tomonidan beriladi. Bunda akkreditiv bo‘yicha tovar hujjatlari kelib tushganda sotib oluvchining joriy schyotida pul mablag‘lari bo‘lmasa, to‘lov tijorat banki tomonidan amalga oshiriladi.

Tijorat banklari tomonidan akkreditiv bo‘yicha to‘lovlar muddatli kreditlar yoki overdraft kreditlari hisobidan amalga oshiriladi. Kreditlashning aynan qaysi shaklidan foydalanib, akkreditiv bo‘yicha to‘lovni amalga oshirish masalasi tijorat banki va mijoz o‘rtasidagi kelishuvga asosan hal qilinadi. Mijoz uchun kredit bilan

bog‘liq bo‘lgan foiz to‘lovlarini tejash nuqtai-nazaridan overdraft kreditidan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Endi biz naqd pulsiz hisob-kitob shakllari vositasidagi hisob-kitoblarning umumiy hajmida har bir naqd pulsiz hisob-kitob shaklining ulushi va dinamikasiga baho beramiz.

2-jadval

**Naqd pulsiz hisob kitob shakllari vositasidagi hisob-kitoblarning umumiy hajmida har bir shaklning ulushi darajasi va dinamikasi[3]**

(foizda)

| Naqd pulsiz hisob-kitob shakllari | 2004 | 2005 | 2006 | 2007 | 2008 | 2008 yilda 2004 yilga nisbatan o‘zgarishi, f.p. |
|---|---|---|---|---|---|---|
| To‘lov topshiriqnomasi | 96,51 | 97,05 | 96,74 | 97,66 | 98,09 | 1,58 |
| Inkasso | 1,91 | 1,68 | 1,77 | 1,54 | 1,15 | - 0,76 |
| To‘lov talabnomasi | 1,39 | 1,23 | 1,41 | 0,74 | 0,70 | - 0,69 |
| Hujjatlashtirilgan akkreditiv | 0,19 | 0,04 | 0,08 | 0,06 | 0,06 | - 0,13 |
| Jami naqd pulsiz hisob-kitob shakllari vositasidagi to‘lovlar | 100,0 | 100,0 | 100,0 | 100,0 | 100,0 | x |

2-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, 2004-2008 yillarda to‘lov topshiriqnomalari vositasidagi hisob-kitoblarning naqd pulsiz hisob-kitoblarning umumiy hajmidagi salmog‘i yuqori darajada saqlanib qolgan. Buning ustiga, 2006-2008 yillarda ushbu ko‘rsatkichning amaldagi darajasi o‘sish sur’atlariga ega bo‘lgan. Mazkur holatlar xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar o‘rtasidagi debitor-kreditor


3.O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining statistik ma’lumotlari asosida hisoblandi.

qarzdorlik hajmini qisqartirish nuqtai-nazaridan hamda korxonalarning pul oqimi barqarorligini ta’minlash jihatidan salbiy holat hisoblanadi. Buning sababi shundaki, birinchidan, to‘lov topshiriqnomalarida to‘lov kafolatlanmagan; ikkinchidan, naqd pulsiz hisob-kitoblarning ushbu shaklida ko‘pchilik holatlarda oldindan to‘lash qo‘llaniladi, bu esa, o‘z navbatida, korxonalar pul mablag‘larini ularning xo‘jalik aylanmasidan chiqib qolishiga, sifatsiz tovarlar yetkazilishiga, tovarlar yetkazib berishning kechiktirilishiga yoki tovarlarning umuman yetkazilmasligiga zamin yaratadi.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, to‘lov talabnomasi vositasidagi hisob-kitoblarning naqd pulsiz hisob-kitoblar umumiy hajmidagi salmog‘ini kichik bo‘lishi ijobiy holat hisoblanadi. Chunki bunda asosan to‘lov amalga oshirilmasdan realizatsiya qilingan tovarlar summasi to‘lanadi.

Shuningdek, inkasso vositasidagi hisob-kitoblarning naqd pulsiz hisob-kitoblar umumiy hajmidagi salmog‘ining kichikligini salbiy holat sifatida baholash mumkin. Buning sababi shundaki, inkassoda tovarlarning summasini to‘latishda bank tomonidan to‘lovchiga ma’lum darajada bosim o‘tkazish imkoniyati yuzaga keladi. Ya’ni, tovarning summasi haqiqatda to‘langandan keyingina tijorat banki inkassoga qabul qilingan tovar hujjatlarini to‘lovchiga beradi. To‘lovchi tovar hujjatlarisiz tovarni omborxonalardan yoki yuk bekatlaridan ola olmaydi. Shu sababli, taraqqiy etgan mamlakatlarning bank amaliyotida naqd pulsiz hisob-kitoblarning inkasso shaklidan keng foydalaniladi. Ammo bizning respublikamizda inkasso vositasida to‘lanadigan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning miqdori katta. Ko‘pchilik hollarda soliq xizmati xodimlari tomonidan kelgusi davrda to‘lanadigan soliq to‘lovlari bo‘yicha inkasso qo‘yiladi. Buning natijasida korxonalarg pul oqimining barqarorligiga nisbatan salbiy ta’sir yuzaga keladi. Shu sababli, naqd pulsiz hisob-kitoblar hajmida Davlat byudjetiga to‘lovlar bilan bog‘liq bo‘lgan inkasso vositasidagi hisob-kitoblar ulushining ortishini ijobiy holat sifatida baholab bo‘lmaydi.

Quyidagi rasmlarning ma’lumotlari orqali respublikamiz amaliyotida mavjud bo‘lgan naqd pulsiz hisob-kitob shakllari vositasidagi hisob-kitoblar miqdorining dinamikasini ko‘rib chiqamiz.




**4-rasm. To‘lov topshiriqnomasi vositasidagi naqd pulsiz hisob-kitoblar dinamikasi, mln.so‘m[4].**

4-rasm ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, 2004-2008 yillarda to‘lov topshiriqnomalari vositasidagi naqd pulsiz hisob-kitoblar miqdori o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lgan. Bu esa, xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar o‘rtasidagi to‘lovlarni o‘z vaqtida va to‘liq o‘tkazishni ta’minlash, tovarlarni o‘z vaqtida va sifatli qilib yetkazib berish jihatidan salbiy holat hisoblanadi. Chunki to‘lov topshiriqnomalari vositasida hisoblashilganda sifatsiz tovarlar tekazib berish, tovarlar yetkazib berishni kechiktirish yoki yetkazib bermaslik xavfi saqlanib qoladi. Buning ustiga, to‘lov topshiriqnomalarida yetkazib berilgan tovarlar va ko‘rsatilgan xizmatlar yuzasidan amalga oshiriladigan to‘lovlar kafolatlanmagan. Taraqqiy etgan mamlakatlarda, jumladan, Markaziy va G‘arbiy Yevropa mamlakatlarining bank amaliyotida yetkazib beriladigan tovarlarning sifati bo‘yicha tijorat banklari tomonidan beriladigan kafolatlardan foydalaniladi. Bunda sifatsiz tovar mol yetkazib beruvchi tomonidan yetkazib berilgan taqdirda, kafolat

---

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining statistik ma’lumotlari asosida hisoblandi

bergan bank oldi-sotdi shartnomaisda ko‘zda tutilgan jarima summasini to‘lovchiga to‘lab beradi va oldindan to‘langan summani qaytarib beradi. Lekin O‘zbekiston Respublikasi amaliyotida tovarlarning sifati yuzasidan bank kafolatlarini berish qo‘llanilmaydi. Fikrimizcha, bank kafolatining mazkur turini qo‘llash zaruriyati mamlakatimizning xo‘jalik amaliyotida mavjud. Chunki xorijiy mamlakatlardan import qilingan ayrim asbob-uskunalarning moddiy va ma’naviy jihatdan eskirganligi va buning natijasida investitsion loyihalarning samaradorligini ta’minlada muammolarning yuzaga kelganligi kuzatildi. Agar ushbu sifatsiz uskunalarning sifati bo‘yicha xorijiy banklarning sifat yuzasidan berilgan kafolatlari mavjud bo‘lganda edi, tashqi savdo shartnomasida ko‘rsatilgan jarima summalarini xorijiy banklardan undirish, oldindan to‘langan valyuta mablag‘larini qaytarib olish imkoni yuzaga kelgan bo‘lar edi.

## 3. O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarida pul aylanishining tartibi

Taraqqiy etgan mamlakatlarning tajribalarini o‘rganish natijalari shuni ko‘rsatdiki, pul taklifini tartibga solish tizimining samaradorligini ta’minlash, milliy valyutaning barqarorligini ta’minlash va inflyatsiyani jilovlash imkonini beradi. Xususan, AQShda XX asrning 70-yillarida pul massasining barqaror o‘sish sur’atlarini ta’minlashga erishilganligi inflyatsiya darajasini keskin pasaytirish imkonini berdi.

Klassik iqtisodchi olimlar – J.M.Keyns va M.Fridmen pul massasini tartibga solish masalasining barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etishini isbotlab berishgan. Jumladan, M.Fridmenning fikricha, pul massasining ishlab chiqarish hajmiga nisbatan yuqori sur’atlarda o‘sishi inflyatsiyani yuzaga keltiradi. Shu sababli, pul massasini tartibga solish yo‘li bilan inflyatsiyani jilovlash mumkin.

Respublikamizda pul massasining o‘sish sur’atlari va multiplikativ kengyishining barqarorligini ta’minlash maqsadida majburiy zixira siyosatining moslashuvchanlik darajasini oshirish, tijorat banklari aktivlari va resurslari o‘rtasidagi nomutanosiblikning yuzaga kelishiga yo‘l qo‘ymaslik orqali muddatli depozitlarning brutto depozitlar hajmidagi salmog‘ini oshirish mumkin.

Markaziy bankning pul bazasi orqali pullar taklifiga kuchli darajada ta’sir eta olishi xalqaro amaliyotda isbotlangan. 2009 yil sentyabr oyidan boshlab O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining majburiy zahira stavkalarini depozitlarning muddatiga bog‘liq ravishda tabaqalashtirilganligi pul massasining multiplikativ kengayishini ta’minlashga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Markaziy bankning ochiq bozor va qayta moliyalash operatsiyalari hajmini oshirish, valyuta va depozit siyosatining moslashuvchanligiga erishish pullar taklifining barqarorligini ta’minlashda muhim o‘rin tutadi.

Markaziy bankning ochiq bozor operatsiyalari hajmini oshirish ushbu operatsiyalarning ob’ektivi bo‘ladigan qimmatli qog‘ozlarning sonini oshirishni

talab etadi. Masalan, O‘zbekistonda davlat qisqa muddatli obligatsiyalari Markaziy bankning ochiq bozor operatsiyalari ob’ekti hisoblanadi.

Majburiy zahira stavkalarining tabaqalanishi natijasida ularning amaldagi darajasi muddatli depozitlar uchun pasaygan. Bu esa, pul massasining multiplikativ kengayishiga xizmat qiladi. Ammo 2011 yilda davlatning qisqa muddatli obligatsiyalari emissiya qilinmadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 30 dekabrdagi PQ-1675-sonli “O‘zbekiston Respublikasining 2012 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozlari va Davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida”gi Qaroriga muvofiq, muomaladagi davlat qimmatli qog‘ozlari 2012 yilning oxiriga qadar to‘liq so‘ndirilgan. Natijada mamlakat Markaziy bankining ochiq bozor operatsiyalarining ob’ektlarini o‘zgartirish zaruriyati yuzaga keladi.

**Jadval.** ***O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining majburiy zaxira stavkalari.***

| **Tijorat banklari depozitlari** | **Majburiy zaxira stavkasi,%** | |
|---|---|---|
| | **2009y. 1 sentyabrgacha** | **2009y.1 sentyabrdan** |
| Bir yilgacha muddatga jalb qilingan | 13,0 | 15,0 |
| Bir yildan uch yilgacha muddatga jalb qilingan | 15,0 | 12,0 |
| Uch yildan ortiq muddatga jalb qilingan depozitlar | 15,0 | 10,5 |

Markaziy bankning majburiy zahira stavkalarini tabaqalashtirish uchun asos – O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 28 iyuldagi PQ-1166-sonli “Tijorat banklarining investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga yo‘naltirilgan

uzoq muddatli kreditlari ulushini ko‘paytirishni rag‘batlantirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi Qarori hisoblanadi.*

Xalqaro amaliyotda pul bazasi asosan quyidagi elementlardan tashkil topadi: Markaziy bank tomonidan emissiya qilingan naqd pullar; tijorat banklarining Markaziy bankning balansida ochilgan “Nostro” vakillik hisobraqamlaridagi pul mablag‘lari; tijorat banklarining Markaziy bankka o‘tkazilgan majburiy zahira ajratmalari.

Respublikamizda pul massasining o‘sish sur’atlari va multiplikativ kengayishining barqarorligini ta’minlash maqsadida majburiy zaxira siyosatining moslashuvchanlik darajasini oshirish, tijorat banklari aktivlari va resurslari o‘rtasidagi nomutanosiblikning yuzaga kelishiga yo‘l qo‘ymaslik orqali muddatli depozitlarning brutto depozitlar hajmidagi salmog‘ini oshirish lozim.

2008 yilda boshlangan jahon moliyaviy inqirozi taraqqiy etgan mamlakatlarda Markaziy banklarning ochiq bozor ob’ektlari sonini oshirish zaruriyatini yuzaga keltirdi. Bir qator korporativ qimmatli qog‘ozlar, ipoteka obligatsiyalari ochiq bozor operatsiyalarining ob’ekti sifatida oldi-sotdi ob’ektiga aylandi.

Taraqqiy etgan mamlakatlarning bank amaliyotida ochiq bozor operatsiyalaridan bank tizimining likvidligiga ta’sir maqsadida foydalanish keng tarqalgan. AQSH Federal zaxira tizimida ham, Yevropa Markaziy bankining faoliyatida ham ochiq bozor operatsiyalaridan bank tizimining likvidligiga ta’sir etish maqsadida foydalanilayotganini kuzatish mumkin.

Pullar taklifini tartibga solishda Markaziy bankning qayta moliyalash siyosati muhim o‘rin tutadi. Taraqqiy etgan mamlakatlarda Markaziy banklar tijorat banklarini trattalarni qayta hisobga olish yo‘li bilan kreditlash usulidan keng foydalanadi. Ammo ko‘pchilik o‘tish iqtisodiyoti mamlakatlarida trattalar muomalasi mavjud bo‘lmaganligi sababli, Markaziy banklar trattalarni qayta hisobga olishga asoslangan diskontli kreditlar berish imkoniyatiga ega emas.

Aytish kerakki, trattalarni Markaziy bankda qayta hisobga olish har bir tijorat bankiga beriladigan qayta hisobga olish limiti asosida amalga oshiriladi. Bund har bir tijorat banki uchun qayta hisobga olish limitini belgilashda qayta hisobga olish kontingenti mamlakat tijorat banklarining soniga bo‘linadi. Limit belgilashning umumiy tenglik asosida amalga oshirilishi, banklararo raqobat muhitiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Chunki, tijorat banklariga nisbatan limitning ularning umumiy kapitali yoki birinchi darajali kapitaliga qarab belgilanishi kapital miqdori katta bo‘lgan tijorat banklariga nisbatan barobar bo‘lmagan raqobat muhitini ta’minlaydi.

Pullar taklifini tartibga solishning dolzarb masalalaridan biri – inflyatsiyani jilovlash hisoblanadi. Masalaning dolzarbliligi shundaki, pullar taklifining ko‘payishi inflyatsiya darajasining oshishiga sabab bo‘lishi mumkin. Bunday sharoitda pul massasining o‘sishini cheklashga qaratilgan restriksion pul-kredit siyosatining amalga oshirilishi makroiqtisodiy o‘sish sur’atlarining sekinlashishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli, pul massasini tartibga solish maqsadida amalga oishirilayotgan tadbirlarning makroiqtisodiy o‘sish sur’atlariga ta’siri Markaziy banklar uchun doimiy tahlil va monitoring ob’ekti bo‘lib qolmoqda.

Ahamiyatli jihati shundaki, respublikamizda inflyatsiyaning belgilangan prognoz ko‘rsatkichlari doirasida jilovlashga muvaffaq bo‘linmoqda. 2011 yil uchun inflyatsiyaning yillik prognoz ko‘rsatkichi 7-9 foiz qilib belgilangani holda, uning amaldagi darajasi 7,6 foizni tashkil etdi.

Respublikamiz iqtisodiyotiga investitsiyalarni keng ko‘lamda jalb qilinayotganligi inflyatsiya va devalvatsiya sur’atlarining yo‘l qo‘ymaslikni dolzarb masalaga aylantiradi. Buning sababi shundaki, inflyatsiya va devalvatsiya sur’atlarining yuqori bo‘lishi investitsiya loyihalarini moliyalashtirish jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Pullar taklifini tartibga solish tizimining samaradorligini ta’minlash bevosita Markaziy bankning monetar siyosati instrumentlaridan foydalanish amaliyotining takomillashganligiga bog‘liqdir.

## Xulosa.

Pullarning muntazam aylanishi sharoitida diqqat-e’tibor banklar va chakana savdo korxonalarida yuqori shaffoflik, sifat va xavfsizlik, shuningdek naqd pul muomalasini tashkil etishga harajatlarni sezilarli kamaytirish uchun naqd pullar aylanishini optimallashtirishga qaratiladi.

Pul aylanishini ikki asosiy belgiga: jami ijtimoiy mahsulot ishlab chiqarish va pulning funksiyalariga ko‘ra tarkibiy qismlarga bo‘lish mumkin.

Pul oboroti investitsiya bilan bog‘liq harajatlarni, sug‘urta jarayonlarini amalga oishirishni, mulkni, hayotni, transport vositalarni, bog‘larni va boshqa buyumlarni sug‘urta qilish va uni to‘lashni o‘z ichiga oladi.

Pul aylanishi aholi tomonidan uy-joy, kommunal xizmatlar, gaz elektr energiyasi, aloqa xizmatlari uchun to‘lovlar, madaniy-maishiy xizmat ko‘rsatish korxonalariga to‘lovlar, transport uchun va boshqa to‘lovlarni, a’zolik badallari va paylarni to‘lashni o‘z ichiga oladi. Shunday qilib, pulning ayrim yo‘nalishlardagi harakatlarini ko‘rib chiqqan xolda, pul aylanishining mohiyatini quyidagicha ta’riflash mumkin. Pul aylanishi, bu naqd pullik va pul o‘tkazish yo‘li bilan olib boriladigan hisob-kitoblarning yig‘indisidir.

Pul aylanish tezligi uning pul muomala vositasi va to‘lov vositasi sifatida amal qilgandagi harakat ko‘rsatkichidir. Uning miqdorini hisoblash qiyin, shuning uchun uni hisob-kitob qilishda bilvosita ma’lumotlardan foydalaniladi. Sanoati rivojlangan mamlakatlarda pul aylanish tezligi quyidagi ko‘rsatkichlarga bog‘liq bo‘ladi:

-daromadlarning aylanishida tutgan o‘rni. Bu ko‘rsatkich pul muomalasi va iqtisodiy rivojlanish jarayoni orasidagi o‘zaro aloqadorlikni ko‘rsatadi.

-to‘lov aylanishida pulning aylanuvchanlik ko‘rsatkichi. Bu ko‘rsatkich joriy bank schyotlari bo‘yicha o‘tkazilgan mablag‘lar yig‘indisining pul massasi o‘rtacha qiymatiga nisbati sifatida aniqlanadi.

Pulning aylanish tezligining o‘zgarishi umumiqtisodiy hamda to‘la monetar omillariga bog‘liq. Pul qadrsizlangan hollarda iste’molchilar pullarining to‘lov qobiliyatlarini saqlab qolish uchun ko‘proq tovarlar harid qiladilar. Bu esa pul aylanishini tezlashtiradi. Boshqa ko‘rsatkichlar o‘zgarmas bo‘lganida pul aylanishining tezlashishi pul massasi oshishini bildiradi va inflyatsiyaga olib keluvchi bir omil sifatida maydonga chiqadi.

Iqtisodiyotdagi ahvolga qarab Markaziy bank o‘zining pul-kredit sohasidagi strategiyasini aniqlaydi. Bundan tashqari mamlakatdagi pul muomalasi hukumat tomonidan chiqarilgan qaror va farmoyish bilan ham boshqariladi. Bunga misol qilib korxona va tashkilotlarning kassa tushumi rejasining bajarilishi ustidan qattiq nazorat o‘rnatish, barcha savdo shahobchalarini inkassatsiyaga tortish, aholini o‘z daromadini davlat banklarida saqlashga targ‘ib qilish va ishontirish, qimmatli qog‘ozlar bozorini kengaytirish, hisob cheklaridan keng foydalanish, bank tizimini takomillashtirish, ya’ni plastik kartochkalarni joriy etish va boshqalar bularning hammasi muomaladagi pul massasining kamayishiga, emissiya miqdorining qisqarishiga olib kelishi mumkin.

Chet el iqtisodchilarining tadqiqotlarini olib qaraydigan bo‘lsak, yuqoridagidek pul aylanishini ikkiga bo‘lib o‘rganish yo‘q. Buning asosiy sababi, iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlarda hisob-kitoblar asosan naqd pulsiz olib boriladi. Hisob-kitoblarni bu turlarda olib borish qulay va sharoitga mos keladi. Lekin, hali rivojlangan iqtisodga ega bo‘lmasdan turib, biz xorijiy davlatlarning hozirgi hisob-kitoblarning mavqei bilan o‘z hisob-kitob tizimimizni tenglashtira olmaymiz. Undan tashqari bozor iqtisodiga bosqichma-bosqich o‘tish, millshiy pul birligini barqarorlashtirish, muomaladagi pul massasini va pul emissiyasini kamaytirish masalalari dolzarb turgan bir sharoitda pul aylanishini naqd pullik va naqd pulsiz aylanishlarga bo‘lib o‘rganishimiz, ularning tarkibini takomillashtirishimiz, samarali yo‘llarni qo‘llab jamiyatimizda to‘laqonli pul aylanishini yaratishimiz va uni jamiyat rivojlanishi uchun xizmat qildirishimiz zarur. Mana shu sharoitgina rivojlangan xorijiy davlatlarga o‘xshab pul aylanishini

tarkibiy qismlarga bo‘lmasdan tahlil qilishimiz mumkin. Shuni ta’kidlash kerakki, pul aylanishining ikki qismi bir-biri bilan uzviy bog‘liq, chunki pul naqd pul aylanishidan naqd pulsiz aylanishga o‘tadi va aksincha aylanib doimiy harakatda bo‘lib, umumiy pul aylanishini yuzaga keltiradi.

Iqtisodiy kategoriyaga amal qiluvchi har bir mamlakat rivojlanishining asosiy vositalaridan biri pul bo‘lib, bozor iqtisodiga o‘tish va unda ish yuritishda uning o‘rni va ahamiyati yanada oshib boradi. Pul – “bozor tili” deb bejiz aytilmagan. Har bir iqtisodiy axborot, tovarlar va xizmatlar bahosi, to‘lovlar, daromadu harajatlar, moliyaviy talablar va majburiyatlar, iqtisodiy aloqalar makro va mikro darajada faqat pulda ifoda qilinadi.

Bozor munosabatlariga o‘tish iqtisodiy kategori sifatida pulning, kreditning, foiz, soliq va boshqa kategoriyalarning mohichti va ahamiyatiga boshqacha yondashish zarurligini taqozo etadi.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:


1. Karimov I.A. O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida.T.: “O‘zbekiston”, 1995.
2. O‘zbekiston bank tizimini isloh qilish va erkinlashtirish bo‘yicha qonunchilik hujjatlari to‘plami. T. “O‘zbekiston”, 2000 yil
3. I.Karimov “O‘zbekiston: iqtisodiy islohotlarini chuqurlashtirish yo‘lida”. T.”O‘zbekiston” 1995 yil
4. I.Karimov «Mamlakatimizda demokratik isloxotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi». “Xalq so‘zi” 2010 yil. 13 noyabr
5. I.Karimov “Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari” Toshkent “O‘zbekiston” 2009 y.
6. A.O‘lmasov, M.Sharifxo‘jayev, Iqtisodiyot nazariyasi, “Mehnat”, 1995 yil
7. A.O‘lmasov Iqtisodiyot asoslari, T. “Mehnat”,2007 yil
8. YO.Abdullayev,T.Qoraliyev, Pul T. “Mehnat” 2008 yil
9. YO.Abdullayev,T.Boboqulov, Kredit T. “Mehnat”, 2008 yil
10. YO.Abdullayev, Sh.Shoha’zamiy, Qimmatli qog‘ozlar. T. “Mehnat”, 2009 yil
11. SH.Abdullayeva, Pul va pul tizimi. T. “O‘qituvchi”, 1997 yil
12. SH.Abdullayeva, Pul, Kredit va banklar T. “Moliya”, 2007 yil
13. F. Mullajonov «O‘zbekiston Respublikasi bank tizimi» T. “O‘zbekiston” 2001 yil
14. Abdullayeva Sh. Pul, kredit va banklar. T.: “Moliya” nashriyoti, 2008y.
15. “Bozor, pul va kredit” jurnali. – 2009 y. -№3.
16. “Bozor, pul va kredit” jurnali. – 2012 y.-№5,10,11.
17. “O‘zbekiston iqtisodiy axborotnomasi” jurnali. – 2010 y.-№8.